

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJITI DA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich	
XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor	
AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li	
XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich	
QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo	
THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich	
YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna	
QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna-
Abu Rayhon Beruniny nomidagi
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK- GRAMMATIK XUSUSIYATLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670072>

ANNOTATSIYA

Maqolada sholichilikka oid terminlar va guruchli taomlarning lisoniy xususiyatlari, ularning turkiy, fors-tojik tillarida va o'zbek tilining o'g'uz lahjasida qo'llanishida yuz bergan fonetik hodisalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: atiz, ko'lcha, xirmon, kafcha, belkurak, o'roq, o'rim, ildiz, o'toq, qipiq, boshog, boshogchi, ushr, palov, palovxo'r, xalta palov, qovurma palov, shavla, shirguruch.

Пирматова Озодахон Сапарбоевна –
преподаватель Ургенчского государственного
университета имени Абу Райхона Беруни

ЛЕКСИКА РИСОВОДСТВА И ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ БЛЮД С РИСОМ

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о лексических особенностях блюд из риса и терминах рисоводства, а также о фонетических явлениях, произошедших с ними в тюркском, персидско-таджикском языках и огузском диалекте узбекского языка.

Ключевые слова: атыз, маленький участок поля, урожай, совок, лопата, серп, жатва, корень, прополка, отруби, колос, колосник, десятина, плов, любитель плова, плов в мешке, жареный плов, шавля, молочная рисовая каша.

Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna –
Lecturer at Urgench State University
named after Abu Rayhon Beruni

THE LEXICON OF RICE CULTIVATION AND LEXICO-GRAMMATICAL FEATURES OF DISH NAMES CONTAINING RICE

ABSTRACT

The article discusses the lexical features of rice dishes and the terms of rice-growing, as well as the phonetic phenomena that happened to them in the Turkic, Persian-Tajik languages and the Oguz dialect of the Uzbek language.

Keywords: atyz, small area of the field, harvest, scoop, spade, sickle, root, weeding, bran, ear, grate, tithe, pilaf, pilaf lover, pilaf in a bag, fried pilaf, shavlya, milk rice porridge.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Tilshunoslikning eng dolzarb, g'oyatda murakkab ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi terminologiyadir. Ayni paytda qishloq xo'jaligining ajralmas bir qismi bo'lgan sholichilik terminologiyasi singari kam o'rganilgan sohalarga jiddiy e'tibor qaratish zarurati ham kun tartibiga qo'yilmoqda.

Sholi ko'p yillik o'simlik bo'lib, mamlakatimizda qadimdan sholi mahsuloti yetishtiriladi va turli xil navlari yaratiladi. Insonlar sholi mahsulotini ekish, hosilni yig'ib olish, sholidan guruch mahsulotini ajratib olish ishlarida turli xil terminlardan foydalanishadi. Ushbu terminlar tilshunoslikda o'z tadqiqini kutayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotda etimologik, fonetik va morfologik tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, O'zbek tilining izohli lug'atlari, qadimgi turkiy til manbalari, O'g'uz lahjasi, fors-tojik va turkman tillariga oid lingvistik manbalar asosida terminlarning kelib chiqishi, semantik maydoni va grammatik tuzilishi tahlil qilindi. Adabiy manbalar, xususan, Alisher Navoiy asarlaridan namunalar keltirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sholi ekishdan oldin ekin ekiladigan dala ekishga tayyorlanadi. O'zbek tilining o'g'uz lahjasida *dala atiz* leksemasi bilan yuritiladi. *Atiz* "ikki ariq orasidagi ekin". O'g'uz lahjasi va turkman tilida *atiz* ekin maydoni [7. 57].

Ko'lcha termini ham sholi ekish jarayonida faol ishlatiladi. Sholi ekiladigan yer maydoni kichik-kichik qismlarga ajratib chiqiladi. Bu qismlar esa "*ko'lcha*" deyiladi [13. 66].

Kölcä o'g'uz lahjasida "ekiladigan bir parcha yer"; turkman tilida *kö:lche* "ko'lmak". Ammo turkman tilining yomut, taka, chovdur, arsari, To'rtko'l tumanidagi shevalarida *kö:lche* "ekiladigan kichkina dala" dala ma'nosida qo'llaniladi [7.98].

Sholi o'simligi boshqa o'simliklar kabi bir nechta qismlarga ajratiladi. Jumladan, ildizi, poyasi, barglari. Shulardan *ildiz* "o'simlikning ozuqa va suv so'rib oluvchi yerosti qismi". Bu ot qadimgi turkiy tildagi "*qimirlash*", "*jilish*" ma'nosini anglatgan *yil* otidan *-diz (-tiz)* qo'shimchasi bilan yasilib, asli "*ozuqa va suvni jildiruvchi qism*" ma'nosini bildirgan; o'zbek tilida *yizdiz* shakli ishlatilib, keyinchalik so'z boshlanishidagi *y* undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, i unlilarning qattqlik belgisi yo'qolgan: *yil+diz=yildiz>ildiz* shakliga kelgan [9.114].

Xorazm shevasida sholi hosili yig'ib olingach, hosil uyumi "*xirmon*" deyiladi. "*Xirmon*" leksemasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "Fors-tojikcha so'z bo'lib, daladagi hosilni to'plash va tozalash uchun ajratilgan joy, maydoncha" deb izoh beriladi [12.326]. Shuningdek, "Bu ot forscha [*xärmän*] shaklida, tojikcha *xirman* shaklida keltirilgan; o'zbek tiliga tojikcha shakli tarkibidagi a tovushi *o(ä)* tovushiga almashtirib olingan; Bu leksema "yetilgan hosilni yig'ib to'planadigan joy" ma'nosini anglatadi", deyiladi [10.239].

Xirman terminining birinchi komponent *xir-xar* kabi turli ko'rinishlarda, ikkinchi komponent esa deyarli barcha tillarda ikki variantda mon-man shaklida uchraydi. *Xirman* terminining birinchi komponenti *xar* bo'lib, u katta, buyuk ma'nosini bildiradi. Shu ma'nodagi *xar* so'zi fors-tojik tili tarixida ko'pgina yangi so'zlar, qo'shma so'zlar yasalişida birinchi yoki ikkinchi komponent bo'lib qatnashgan (*xarsang*, *xargo'sh* va boshqalar). Ikkinchi komponent *mon-man* esa hozirgi eroniy tillarda mustaqil qo'llanilmaydi. Faqat tarixan qo'shma bo'lgan so'zlarning komponenti funksiyasida uchraydi. *Mon-man* morfemasining leksik ma'nosi *uy*, *xona*, *turadigan*, *yashaydigan joy*, *to'planadigan o'rin* va boshqalardir.

Demak, *xirman* katta to'plam, bir turdagi narsa, predmetlarning uyumi, to'plangan joyidir [7.90].

Alisher Navoiy asarlarida ham *xirman* shaklida ishlatilgan:

Xirman ruxsorig'a solmish mayi gulnori o't,
Uylakim, gul xirmanig'a otashin ruxsori o't [1.103].

Sholi mahsulotini yetishtirishda turli xil ish qurollaridan ham foydalaniladi. Jumladan, sholi dalasini sug'orishda *kafcha* deb nomlanuvchi ish quroli ishlatiladi. O'g'uz lahjasida ushbu leksema *kafcha*, *kapcha* kabi fonetik o'zgarishlarga uchragan holatda ishlatiladi. Til tarixiga oid yodnomalarda “*käfchä*” “*qoshiq*” ma'nosini ifoda qilgan. O'g'uz lahjasi va turkman tilida *käpçä* (turkm. *kepçe*) maxsus belkurak. Bu belkurak paxsa devorlarga loy uzatish ishlarida qo'llaniladi [11.88].

Fors tilida *kafche* “*cho'mich*”, Qozog'istondagi turklar tilida ham *käpçä* “*cho'mich*” [6.60]. Ovqat yeyishda ishlatiladigan bu so'z o'g'uz lahjasi va turkman tilida qurilish ishlarini bajarishda qo'llaniladigan qurol ma'nosini anglatadigan so'z bo'lib qolgan. Tojik tilida ham *kafcha* “*belkurak*” dir [11.89].

O'zbek tilida *kafcha* belkurakdan kichik shakldagi ish qurolidir. Sholi dalalarini sug'orishda ishlatiladi.

Yer qazish, sochilgan narsalarni yerdan to'plab olish uchun dehqonchilikdan *belkurak* asbobidan foydalaniladi. Shuningdek, sholi dalasini bir xil jildirاتب sug'orish uchun yerni past va balandligi bir xilda tekislanadi. Ushbu jarayonda *belkurak*dan foydalaniladi. Bu qo'shma so'z o'zbek tilida “*o'rta*” ma'nosi bilan qatnashgan *bel* so'zini “surib to'plash asbobi” ma'nosini anglatuvchi *kuräk* so'ziga birlashtirib hosil qilingan: *bel+kuräk=belkuräk* [9.45].

Bel- yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol; belkurak. “Bel bilan yer kavlamoq” ma'nolarini bildiradi [10.90].

Bel-kurak, *belkurak* Alisher Navoiy asarlarida ham yerni kavlash va pushtalarni tekislashda ishlatiladigan asbob nomi sifatida keltiriladi.

Ki bolchig' pushtasin no'gi itik bel,

Vayo poru bila qor aritur el [2.116].

Sholi o'simligi unib chiqib, hosil bergandan so'ng sholi poyasi o'roq yoki kombayn orqali o'riladi. *O'roq* “o'simlikni poyasi bilan kesish quroli”. Bu ot qadimgi turkiy tilda “*poyasi bilan kes*” ma'nosini anglatuvchi *or*- fe'lining “*takror*” ma'nosini ifodalovchi *-g'a* qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik *g'* undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan; o'zbek tilida *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan: (*or*-+*-g'a=org'a*-)+*q=org'aq>oraq>oräq* kabi fonetik o'zgarishga uchragan [9.488].

Sholi hosili unib, hosilga kirgach yig'im-terim ishlari olib boriladi. Bu jarayon *o'rim* leksemasi bilan yuritiladi. *O'rim* “o'simlikni poyasi bilan kesib olish” ma'nosini beradi. “Hozir bedaning ikkinchi o'rimi boshlandi”. Bu ot qadimgi turkiy tilda “*o'simlikni poyasi bilan kes*-” ma'nosini anglatgan *or*-fe'liga *-(u)m* qo'shimchasi bilan yasalgan [8.104]. O'zbek tilida ikkinchi bo'g'indagi *u* unlisi *i* unlisiga almashgan: *or*-+*um=orum>orim* [9.486]. Ko'rinadiki, ushbu leksema turkiy tilga xos bo'lib, *o'rmoq*, *kesmoq* ma'nolarini anglatadi.

Sholi dalasida sholi nihollari qurib qolmasligi uchun suv turadi. Natijada turli begona o'tlar o'sadi. Shuning uchun tez-tez sholi dalasi begona o'tlardan tozalab turiladi. Bu jarayon *o'tamoq* leksemasi bilan yuritiladi. *O'tamoq* fe'li “*chorva mollariga yemish bo'ladigan o'simlik*” ma'nosini anglatuvchi “*ot*” otiga [8.71] *-a* qo'shimchasi bilan yasalgan; o'zbek tilida *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan: *ot*+*a=ota->otä* [9.491].

O'toq leksemasi *o'tamoq* fe'lining o'zagiga *-q* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. “Ekin orasidagi begona o'simlikni yulib tashlash”. Bu ot eski o'zbek tilida “*ekin orasidagi begona o'simlikni yul*” ma'nosini anglatuvchi *ota*-fe'liga *-q* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan; keyinchalik *q* undoshi oldidagi *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan va *ota*-+*q=otaq>otäq* shakliga kelgan [9.494].

Qipiq leksemasi “don qobig'ining to'poni”, “yog'och, temir kabilarning to'poni”dir. “Men kraxmal o'rniga guruchdan chiqadigan qipiqni ishlatmoqchiman”. Shunday ma'noni anglatuvchi so'z qadimgi turkiy tilda *qavvuq*, *qaviq* tarzida talaffuz qilingan. Bu ot *-(i)q* qo'shimchasi bilan yasalgan. Yasash asosi bo'lib qadimgi turkiy tildagi “*yotiq holatda kes*” ma'nosini anglatgan *qiy*-fe'lining *qav*-shakli xizmat qilgan. Keyinchalik *v* undoshi *p* undoshiga, *a* unlisiga *i* unlisiga almashgan, so'ngra *i* unlilarining qattqlik belgisi yo'qolgan va *qav*-+*iq=qaviq>qapiq>qipiq* tarzida qo'llanilgan [9.549].

Sholi o'simligining hosilga kirgan qismi *boshq* leksemasi bilan yuritiladi. Ya'ni "*Boshq*—don o'simligining hosil beruvchi tepa qismi". Bu so'z asli *bash* so'zining "*tik narsaning qismi*" ma'nosidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-(a)q* qo'shimchasi bilan hosil qilingan bo'lib, dastlab "*o'q va nayza uchidagi temir*" ma'nosini anglatgan [8.359], hozirgi ma'nosi bu so'zni o'simlikning qismiga ko'chirish natijasida yuzaga kelgan; o'zbek tilida *a* unlilari *ä* unlilariga almashgan: *bash+aq=bashaq<bäshäq*. [9.62].

Boshqochi leksemasi g'allasi o'rib olingan maydonda sochilib qolgan boshqolarni teruvchi, boshq teruvchi, mashqochi ma'nosini anglatadi. Bu leksema *boshq* leksemasiga *—chi* ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

Alisher Navoiy asarlarida ham *boshq* leksemasi "o'simlikning tepa qismi" ma'nosida qo'llangan.

*Shajar yafrog'lari o'qdek qadingning hajrida bordur,
Bashqolarkim, chaman ashki namidin bo'ldi zangori* [3. 233].

Dehqonlar sholi hosilini olishgandan keyin hosildan bir qismini ajratib muhtoj insonlarga tarqatishgan. Bu xalq orasida *ushr berish* deyiladi. *Ushr* leksemasi o'ndan bir, yilda bir marta ekin (don, meva) larga solinadigan soliq nomi.

*Hisob ichra bu hechdin dag'i kam,
Kishi ko'rmamish bo'lsa ushrini ham* [4.304].

Poxol leksemasi bug'doy, sholi kabi boshqli o'simliklarning doni yanchib olingandan keyin qolgan quruq poyasini anglatadi [6.105]. *Poxol* yumshoq bo'lgani uchun to'shak o'rnida ham ishlatilgan.

Sholidan olinadigan guruch mahsulotidan turli xil taomlar tayyorlanadi. Jumladan, guruchdan eng ko'p tayyorlanadigan va sevib tanovul qilinadigan taom palovdir. Palov forscha *polou*, tojikcha *palav* shaklida keltirilgan; o'zbek tiliga tojikcha shakli v tovushi oldida kelgan a tovushini o (*ä*) tovushiga almashtirib olingan; "go'sht, piyoz, sabzini yog'da qovurib, qaynatib, guruch solib, yana biroz qaynatib, damlab pishiriladigan milliy taom" ma'nosini anglatadi [10.181]. Asosiy masallig'i guruch, yog', go'sht va sabzidan iborat, qovurib, qaynatib va damlab tayyorlanadigan quyuq ovqat; osh [12.14].

Palovning turlari ko'p bo'lib, jumladan, *ivitma palov* oldindan ivitib qo'yilgan guruchdan tayyorlangan yumshoqroq palov. *Samovar palov* esa choyxonada sara masalliqlardan yaxshi pazanda tayyorlagan palov [12.14].

Shuningdek, palovning *xalta palov* degan turi ham mavjud bo'lib, guruchi alohida xaltada suvda qaynatib, pishirib olingan palov.

Qovurma palov esa masallig'i obdan qovurib, guruchi ivitmay tayyorlanadigan palov turidir [12.14].

O'zbek tilida palovni sevib va ko'p tanovul qiladigan insonlarga nisbatan *palovxo'r* leksemasi ishlatiladi [12.14]. *Palovxo'rlik* esa to'yib palov yeyish, palovga to'yishdir.

Guruchdan tayyorlanadigan taomlarning turlari ko'p bo'lib, jumladan *shavla* guruchdan tayyorlangan yumshoq osh. Ya'ni go'sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo'tqasimon ovqat [12.4].

Shirguruch esa forscha sutli shavla ma'nosini bildiradi. Guruchni sutda pishirib tayyorlangan shavlasimon quyuq taomdir [12.51].

XULOSA

O'zbek tilining qishloq xo'jaligiga oid sholichilik terminologiyasi tadqiq qilinishi lozim bo'lgan sohalardan biri bo'lib, ushbu terminlarning etimologiyasi biroz munozaralidir. Chunki sholichilik terminlarining aksariyati fors-tojik tilidan o'zlashgan. Shuningdek, ushbu terminlarning qo'llanilishi turkiy tillarda turlicha bo'lib, fonetik o'zgarishlarga uchragan. Guruchdan tayyorlanadigan taomlarning nomlari ham asosan fors-tojik tiliga oiddir. Shuning uchun ham lug'aviy ma'nolarini tahlil qilish biroz murakkablik kasb etadi. Shu jihatdan sholichilik terminologiyasining leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar” asari. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Alisher Navoiy Farhod va Shirin. Toshkent. “G‘afur G‘ulom”. 1956-y.
3. Alisher Navoiy. Hazoyinul-maoniy. Toshkent. 1959-60-y.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati I. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. To‘rt tomlik. Toshkent-1983-y.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati I. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. To‘rt tomlik. Toshkent-1983-y.
6. Алиев Ф.Ф. Очерки по лексике языка турок Казахстана. Алма-Ата. 1978-й.
7. Bafoev B. “Ko‘hna so‘zlar tarixi”. O‘zbekiston. “Fan” nashriyoti. 1991-y.
8. “Devonu lug‘otit-turk”, O‘zbekiston. “Fanlar akademiyasi” nashriyoti. Toshkent, 1960- y.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. (turkiy so‘zlar) Toshkent. “Universitet” 2000-y. (I qism)
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. (turkiy so‘zlar) Toshkent. “Universitet” 2009-y. (III qism)
11. Saparov M. Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o‘zaro munosabatlari. Toshkent. O‘zbekiston. “Fan” nashriyoti. 1988-y.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. www.ziyouz.com kutubxonasi.
13. G‘ulomov Ya. Xorazmning sug‘orilish tarixi. O‘zbekiston. “Fanlar akademiyasi” nashriyoti. Toshkent. 1959-y.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000